

INFLATSIYANING MOHIYATI VA KELIB CHIQISH SABABLARI

*Buxoro Davlat Universiteti
Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi*

Niyozova I.N.

"Iqtisodiyot va turizm" fakulteti talabasi

Sattorova Mohiya

Annotatsiya. Ushbu maqolada inflyatsiya uning paydo bo'lishi, inflatsiyaning mohiyati va kelib chiqish sabablari, inflatsiyani oldini olish, inflyatsiya davrida pul muomalasini barqarorlashtirish to'g'risida nazariy va amaliy jihatlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: inflatsiya, xarajatlar, inflatsiya turlari.

Key words: inflation, costs, types of inflation.

Ключевые слова: инфляция, издержки, виды инфляции.

KIRISH

Hozirgi zamon inflyatsiyasi nafaqat tovarlar va xizmatlarga bo'lgan baholarni muntazam o'sishi natijasida pulning sotib olish qobiliyatini pasayishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonidagi nomutanosiblik, pul muomalasi, moliya hamda kredit sohasidagi salbiy omillar bilan tasniflanadi. Inflyatsiyaning yuzaga chiqishining asosiy sabablari bo'lib iqtisodiyot tarmoqlari, jamg'arma va iste'mol, talab va taklif, davlat daromadlari va xarajatlari, xo'jaliklarning pul massasi va unga bo'lgan talabi o'rtasidagi mutanosiblik hamda markaziy bankning kredit ekspansiyasi hisoblanadi. Ushbu ta'kidlab o'tgan omillar o'z mohiyatiga asosan inflyatsiyaga, uning darajasiga turlicha ta'sir etishi mumkin. Iqtisodiyotimizning jahon xo'jalik va iqtisodiy- moliyaviy tizimiga integratsiyalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotganini inobatga oladigan bo'lsak, jahon moliyaviy inqirozi, avvalo uning oqibatlarini bizga ham salbiy ta'sir ko'rsatayotgani haqida gapirib o'tirishning hech qanday zarurati bo'lmasa kerak, deb o'ylayman.

Inflatsiya so'zi lotincha bo'lib, lug'aviy manosi "bo'rtish", "ko'pchish", mantiqan pulning qadrsizlanishi va narx-navoning muntazam ravishda oshib borishi kabi ma'nolarni bildiradi. Inflyatsiya so'zining iqtisodiy manosi - muomalada mavjud bo'lgan tovarlar va ularning bahosiga nisbata ko'p pul chiqarish degan ma'noni anglatadi. Inflyat siya so'zi Pul muomalasi sohasida AQSh ning Shimoliy va Janubiy shtatlari o'rtasida fuqorlar urushi bo'lganda muomalaga juda ko'p miqdorda (450mln.grinbek) qog'oz dol-lar chiqarilgan

vaqtdan boshlab qo`llanila boshlagan. Ularning sotib olish qobiliyati ikki yildan keyin 50 foizlargacha tushib ketgan. XX asr inflyatsiyasining asosiy sababi tovar kamyobligigina bo`lib qolmasdan, ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarishda krizislar mavjudligi bilan ifodalanadigan hozirgi davr inflyatsiyasi birinchidan: pul talabining to- var taklifidan oshishi natijasida pul muomalasi qonunining buzilishi; ikkinchidan: ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar salmog`ining o`shishi natijasida tovarlar bahosining oshishi va shu sababli pul massasining ortib borishi bilan ifodalanadi. Inflyatsiya quyidagi shakllarda namoyon bo`ladi:

-tovar va xizmatlar bahosining uzluksiz va tartibsiz o`shib borishi natijasida pulning qadr- sizlanishi va uning sotib olish qobiliyatining tushib borishi;

-chet el valyutasiga nisbatan milliy valyuta kursining tushib ketishi; Inflatsiya sharoitida quyidagilar ro`y beradi:

- muomalada keragidan ortiqcha pul paydo bo`ladi; -tovarlar bahosi va xizmatlar xaqi to`xtovsiz o`shib boradi;-pulning qadr-qiymati va xarid qobiliyati pasayib boradi;

Inflatsiyani quyidagi sabablar keltirib chiqaradi:-Davlat o`z xarajatlarini o`z daromadi hisobidan qoplay olmay qolgan holatda, muomalaga qo`shimcha pul chiqarish orqali qoplaydi. Natijada muomalada Tovar va xizmatlar bilan taminlanmagan pul paydo bo`ladi, bu esa o`z navbatida pulning qadrsizlanishiga olib keladi.-Ishlab chiqarishning qisqarishi. Ishlab chiqarish pasayganda muomaladagi pul kamaymaydi, tovarlar miqdori esa kamayadi, natijada narx oshadi pul qadri pasayadi.-Mamlakatda chetdan keltirilgan tovarlar narxining ko`tarilishi. Bu o`z navbatida mamlakatda ishlab chiqaril- gan o`xshash va o`rinbosar tovarlar narxini oshiradi.-Kreditning haddan tashqari rivojlanib ketishi. Moddiy ne'matlar yaratish bilan bog`liq bo`lmagan sohalarga berilgan kreditlarning tez sur`atlar bilan o`shishi muomaladagi pul massasining ko`payishiga olib keladi. -Pulga nisbatan xalq ishonchining yo`qolishi, bozorda talabga javob bermaydigan.Tovar larning ko`payib ketishi, mamlakat to`lov balansi va boshqalar.

Inflyatsiyaning har tomonlama avj olib ketishi mamlakatda sotsial va iqtisodiy jihatdan qaramaqarshiliklar yuzaga kelishiga olib keladi. Shuning uchun davlat inflyatsiyaning oldini olish,pul muomalasini barqarorlashtirish chora tadbirlari ishlab chiqiladi.

Oldingi markazlashgan, rejali boshqaruvga asoslangan iqtisodiy tizimda pul muomalasi rejalashtirish asosida boshqarib kelingan. Aholining daromadi va harajatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirib turilgan.

Tovar ishlab chiqarishni kengaytirish, aholiga kreditga tovar berish, baholar tizimini o'zgartirib turish va hakazolar. Barcha jarayonlar davlat tomonidan boshqarilgani uchun pul muomalasi qonuni buzilganda davlat o'z vakolati doirasida narxlarni o'zgartirish yo'li bilan, pul reformasi bilan pul muomalasini tartibga solib kelgan. Tarix xaqiqatda ham bu so'zning har tomonlama xavfli ekanligini ko'rsatdi

Chunki inflyatsiya qandaydir alohida olingan bozorda tovarlar va xizmatlar narxining o'sishidagina iborat bo'lmasdan, bu umumiy iqtisod uchun xavfli hodisadir. Inflatsiya so'zining iqtisodiy ma'nosi - muomalada mavjud bo'lgan tovarlar va ularning bahosiga nisbatan ko'p pul chiqarish degan ma'noni anglatadi. Oxirgi yillarda inflyatsiya ko'p uchrab turadigan jarayon bo'lib sifati ham o'zgarib bormoqda. Buning sababi shundaki, hozirgi kunlardagi inflyatsiya: birinchidan, uzluksiz baholarning oshishiga; ikkinchidan pul muomalasi qonunining buzilishi natijasida umumxo'jalik mexanizmining ishdan chiqishiga olib keladi. Inflyatsiyaning asosiy sababi - bu xalq xo'jaligining turli sohalari o'rtasida vujudga kelgan nomutanosiblikdir.

Bu avvalam bor jamg'arma va iste'mol o'rtasidagi, talab va taklif, davlatning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muomaladagi pul massasi va xo'jaliklarning naqd pulga bo'lgan talabi o'rtasidagi nomutanosibliklardan iboratdir.

Inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi omillarga qarab uning sabablarini ichki va tashqi sabablarga bo'lish mumkin. Inflyatsiyaning ichki omillari monetar-pul siyosati bilan va faoliyati bilan bog'lik turlariga bo'linadi. Inflyatsiyaning tashqi omillariga jahon iqtisodida bo'lgan krizislar, (xomashyo, yoqilgi, valyuta buyicha) davlatning valyuta siyosati, davlatning boshqa davlatlar bilan tashqi iqtisodiy faoliyati, oltin va valyuta zaqiralari bilan bo'ladigan noqonuniy operatsiyalar va boshkalar bo'lishi mumkin. Bugungi kunda inflatsiyaga sabab: siyosiy oqibatlar, pul emissiyasining ko'payishi, yashirin iqtisodiyotning keskin ko'payishi, ishsizlik, ishlab chiqarishning pastligi, aholi soni, jamg'arish va h.k va buning oqibatlari esa quyidagilardan iborat: birinchi navbatda mehnat qilish motivatsiyasi pasayadi, ijtimoiy tabaqqalashuv yuzaga keladi, jamg'arishning pasayishi kuzatiladi, qat'iy daromad oluvchilarning sotib olish qobiliyati pasayadi, investitsiyalash kamayadi, yuqori tovar ishlab chiqarishdan past sifatli tovar ishlab chiqarishga o'tiladi

	o'tgan oyga nisbatan (%)	o'tgan yilning shu oyiga nisbatan (%)
Yanvar 2024	0,6	8,6
Dekabr 2023	1,2	8,8
Noyabr 2023	1,1	8,8
Oktabr 2023	1,0	9,0
Sentabr 2023	0,2	9,2
Avqust 2023	0,5	9,0
Iyul 2023	-0,2	8,9

1-rasm.2024-yil yanvar oyidagi inflatsiya ko'rsatkichi

2023-yil oxirigacha 12 oylik inflyatsiya surati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 foiz punktdan ko'proqqa (9 foizgacha) pasayishi kutilmoqda, bunga Markaziy bankning yuqori real asosiy stavkasi, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining pasayishi, shuningdek, jahonda oziq-ovqat va energiya narxlarining kamayishi ta'sir qiladi. O'zbekiston Markaziy banki 2020 yil 1 yanvardan bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o'tdi. Inflyatsiya darajasini 2021 yilda 10 foizgacha pasaytirish hamda 2023 yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflyatsion maqsadni (target) o'rnatish rejalashtirilmoqda.



2-rasm. Inflyatsiya darajasi prognozi

Inflyatsion targetlash muvaffaqiyatli qo'llanilgan davlatlar sifatida Yangi Zelandiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Finlandiya, Shvetsiya, Avstraliya va Ispaniya tilga olinadi. Avstraliya, Finlandiya va Shvetsiyada Markaziy bank inflyasiyaning maqsadli ko'rsatkichini hukumatning qo'llab-quvvatlash xususidagi roziligini olmasdan turib e'lon qilgan. Kanada va Yangi Zelandiyada maqsadli ko'rsatkichga erishish uchun 18 oylik muddatni

belgilangan. Mazkur muddat tugagandan so'ng, inflyasiyaning darajasini bosqichma-bosqich pasaytirish maqsadida, Yangi Zelandiyada yana 12 oylik, Kanadada – 18 oylik muddat belgilangan.

Rossiyada 2016 yilda inflyasion targetlash samarasini ta'minlagan omillar quyidagilardan iborat:1. Tabiiy monopoliyalar mahsulotlari va xizmatlari baholarining past o'sish sur'atlarini ta'minlanganligi. 2016 yilda mazkur baholarning o'sish sur'ati 1,3 foizni tashkil etdi.2. Milliy valyutaning nominal almashuv kursining barqaror bo'lganligi (2016 yil davomida 1 AQSh dollarini 64-67 rubl darajasida bo'lishi ta'minlandi.). 3. Pul massasining past darajadagi o'sish sur'atining ta'minlanganligi. 2016 yilda pul massasining o'sish sur'ati (M2 pul agregati bo'yicha) 9,2 foizni tashkil etdi. 2015 yilda o'sish sur'ati 11,5 foizni tashkil etgan edi. 4. Zaxira fondi mablag'lari hisobidan davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirish orqali pul bazasining ko'payishiga yo'l qo'yilmaganligi (2015 yilda yo'l qo'yilgan edi).

Inqirozga yuz tutgan mamlakat hukumati qiyin vaziyatni bartaraf etish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan siyosatni olib borishi kerak. Inflyatsiyani tartibga solish usullari bevosita va bilvosita:

- markaziy bank boshqaruvi orqali pul oqimlarini boshqarish;
- Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining buxgalteriya va kredit jarayonlarini tartibga solish jarayoni;
- tijorat moliyaviy tashkilotlarining zaxiralari, markaziy moliya institutining qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyati;
- kreditlarni bevosita va bilvosita boshqarish va pul oqimlarini boshqarish jarayoni;
- davlatning mahsulot qiymatiga ta'siri;
- davlat ish haqini tartibga soladi;

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, inflyatsiya har qanday davlat uchun xavfli hisoblanadi. Hatto iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar xam inflyatsiya davrida og'ir ahvolga tushib qoladi, shu sababli xam davlatlar undan qochishga harakat qilishadi va inflyatsiya davrida undan qutilishni har qanday choralarini qo'llashga harakat qiladi. Mustaqillik yillarida yurtimizda ham inflyatsiya eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Lekin o'z vaqtida ko'rilgan chora va tadbirlar samarasi bilan oldin ko'rib ish qilish natijasida inflatsiya darajasi pasayishiga erishildi. Ammo hozirgi vaqtda ham yurtimizda inflyatsiya biroz yuqori ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak bu bizga xavflidek tuyulishi mumkin. Lekin shuni e'tiborga olish kerakki inflyatsiya faqatgina davlatning yomon ahvolda ekanligini bildiribgina qolmay balki uning yaxshi holatda ekanligini xam bildirishi mumkin. Albatta

qanday qilib degan savol tug`ulishi mumkin, bunga javoban misol keltiradigan bo`lsak: misol uchun Qirg`iziston davlatini oladigan bo`lsak u yerdagi inflyatsiyaning yuqorilashishi kam maxsulot ishlab chiqarishdan yoki davlat byudjeti defetsetini qorlash uchun muomalaga ko`p miqdorda pul chiqarish oqibati bo`lishi mumkin. Lekin O`zbekistonni qaraydigan bo`lsak bu yerdagi 7-8 % lik inflyatsiya davlat byudjetining katta qismi ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun yo`naltirilganligidan darak beradi. Bu albatta ijobiy inflyatsiya bo`lib vaqtinchalik holat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Abdullayeva Z.Sh "Pul va pul tizimi", T.: "O`zbekiston", 2010.
2. Ermatov M. Yo`ldoshev A. "Bank balansi tahlili", T.: "Bozor pul kredit ", 2002
3. Niyozov Z.D., Boboyev Sh.Q. "Pul, kredit va banklar", S.: SamISI 2006.
4. Rashidov O. Yu., Toymuhammedov I.R. "Pul muomalasi, kredit va moliya", o`quv qo`llanma, T.: TDIU, 2007.
5. O`zbekiston Respublikasining "Foizlarni o`stirmaslik to`g`risida"gi nizomi .
6. Adliya Vazirligida 2004-yil 1-yanvarda 1304-son bilan ro`yxatga olingan.
7. Ковалева А.М. «Финансы и кредит», М.: «Финансы и статистика» 2006.
8. Галанов В.А. «Финансы, денежное обращение и кредит» М.: «Форум» 2006.
9. Абдуллаев, Ж. (2023, November). ОЦЕНКА И ОЦЕНИВАНИЕ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕХНИЧЕСКИХ ПРЕДМЕТОВ В ВУЗАХ. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".
10. Abdullaev, A. J., & Raimova, D. D. (2023). TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF TRANSPORT. In Железнодорожный подвижной состав: проблемы, решения, перспективы (pp. 14-22).
11. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 7(7).
12. Odinayeva, N. F., Bakayeva, M. A., & Giyazov, B. B. (2022). Intellectuals with Higher Education in the Economy and Ways to Increase their Competitiveness. Miasto Przyszłości, 84-86.
13. Niyozova, I. (2021). The Transition to the Green Economy and the Importance of Strategy. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

14. Niyozovna, N. I. (2023). Ways to Increase the Competitiveness of Enterprises through Digital Marketing Strategies. *European journal of business startups and open society*, 3(12), 154-157.

15. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. *Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы*, (1), 115-118.

16. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. *International scientific review*, (2 (12)), 105-107.

17. Таирова, М. М., & Кодирова, Н. Р. К. (2020). Инновация-концептуальная основа модернизации. *Наука и образование сегодня*, (2 (49)), 35-36.

18. Таирова, М. М., Абдуллаев, А. Ж., & Гиязова, Н. Б. (2016). Особенности маркетинга в агропромышленном комплексе. In *Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования* (pp. 3871-3873).

19. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Роль маркетинга в сфере агропромышленного комплекса Узбекистана. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1616-1620).

20. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 7(7).

21. Odinayeva, N. F., Bakayeva, M. A., & Giyazov, B. B. (2022). Intellectuals with Higher Education in the Economy and Ways to Increase their Competitiveness. *Miasto Przyszłości*, 84-86.

22. Kayimova, Z. A. (2023). Importance And Development Of Internet Marketing For Enterprises In The B2b Market. *Studies In Economics And Education In The Modern World*, 2(10).

23. Qayimova, Z. (2023). Инновации как фактор повышения эффективности предприятий в условиях цифровизации экономики. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 32(32).

24. Qayimova, Z. (2023). Theoretical Aspects of the Development of the Socio-Economic Infrastructure of the Country. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 27(27).